

BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.01.2020.I.20.06 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI

BERDIMURATOV QUANISHBAY GENJEBAYEVICH

**ASALARICHILIK SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSION
TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH YO‘NALISHLARI**
(Qoraqalpog‘iston Respublikasi misolida)

08.00.04 - Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti

Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi

AVTOREFERATI

Nukus – 2024

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата докторской диссертации (PhD)
философии по экономическим наукам**

Content of the Doctoral (PhD) dissertation abstract

Berdimuratov Quanishbay Genjebayevich

Asalarichilik samaradorligini oshirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish yo‘nalishlari (Qoraqalpog‘iston Respublikasi misolida)..... 3

Бердимуратов Куанышбай Генжебаевич

Направления использования инновационных технологий в повышении эффективности пчеловодства (на примере Республики Каракалпакстан)..... 29

Berdimuratov Kuanishbay Genjebaevich

Directions of using innovative technologies to improve the efficiency of beekeeping (on the example of the Republic of Karakalpakstan)..... 55

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 59

BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.01.2020.I.20.06 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI

BERDIMURATOV QUANISHBAY GENJEBAYEVICH

**ASALARICHILIK SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSION
TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH YO‘NALISHLARI**
(Qoraqalpog‘iston Respublikasi misolida)

08.00.04 – Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti

Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Nukus – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PhD/Iqt3421 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz(rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.karsu.uz) va "Ziyonet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Sauxanov Janibek Kaziyevich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Ubaydullayev Kayrulla
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Farmanov Jonibek Ziyadullayevich
iqtisodiyot fanlari falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Samarqand filiali

Dissertatsiya himoyasi Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti huzuridagi PhD.03/30.01.2020.I.20.06 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil «20» dekabr soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 230113, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko'chasi, 1-uy. Tel./faks: (998 61) 223-60-78, (998 61) 223-59-25, e-mail: info_karsu@edu.uz.

Dissertatsiya bilan Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (231 raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 230113, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko'chasi, 1-uy. Tel./faks: (998 61) 223-60-78, (998 61) 223-59-25, e-mail: info_karsu@edu.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil «05» dekabr kuni tarqatildi.

(2024-yil «05» dekabr» dagi 58 raqamli restr bayonnomasi).



(Handwritten signature)

N.U.Arabov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi
o'rinbosari, i.f.d., professor

(Handwritten signature)

R.B.Utemuratov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy
kotihi, PhD, dotsent

(Handwritten signature)

B.S.Qalmuratov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, i.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda o‘zining rivojlanish va tabiiy-biologik xususiyatlariga ko‘ra asalarichilik sohasi oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashda, inson salomatligini yaxshilashda, iqtisodiy va ekologik muammolar yechimida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Asalarichilik so‘nggi o‘n yilliklarda jahon miqyosida sezilarli darajada o‘tdi. Birlashgan millatlar tashkilotining oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti FAO ma‘lumotlariga ko‘ra, “2022-yilda dunyo bo‘ylab asalari oilalari soni 101,6 milliontani tashkil etgan bo‘lib, 1990-yilga nisbatan bu ko‘rsatkich 47 foizga oshgan. Jahon tabiiy asal bozori 2024-yilda 11,08 mlrd. AQSH dollari qiymatida bo‘lsa, bu ko‘rsatkich yillik o‘rtacha 5,2% o‘sish hisobiga, 2029-yilda 14,28 mlrd. AQSH dollariga yetishi kutilmoqda”¹. Bugungi kunda asalarichilik inson iste‘mol ratsionida hamda chorva uchun beda, bodom, rezavorlar, olma va loviya kabi ko‘plab tabiiy oziq-ovqatlar ishlab chiqarilishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatishiga ko‘ra sohani samarali rivojlantirish dolzarb muammo hisoblanmoqda.

Jahonda qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlar tarkibida innovatsion texnologiyalarga ko‘ra asalarichilik samaradorligini oshirish yo‘nalishidagi ilmiy izlanishlar ustuvor darajada ahamiyat kasb etmoqda. Bu borada raqamli platforma va innovatsion texnologiyalarga ko‘ra asalarichilikni samarali rivojlantirishning uslubiy asoslarini takomillashtirish va mavjud resurslardan oqilona foydalanish, sohaning atrof-muhitga ta‘siriga ko‘ra tabiat va iqtisodiyot o‘rtasidagi muvozanatni saqlash, asalarichilikni ratsional tashkil qilish kabi masalalarga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Yangi O‘zbekistonda iqtisodiyotni, jumladan, qishloq xo‘jaligi sohasini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish, oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash jarayonida asalarichilikni samarali rivojlantirishga muhim ahamiyat qaratilmoqda. “... yana bir ustuvor yo‘nalish – asalarichilikni rivojlantirish maqsadida tuzilgan O‘zbekiston asalarichilar uyushmasiga 14 mingdan ortiq tadbirkor a‘zo bo‘lib kirdi va joriy yilda 19 ming tonna asal yetishtirildi”². Asalarichilikni samarali rivojlantirish borasida soha mahsulotlariga bo‘lgan talabni sifatli va to‘laroq qondirish, asal ishlab chiqarish samaradorligini innovatsion va tejamkor texnologiyalarga ko‘ra oshirish va soha boshqaruvini samarali tashkil qilish kabi yo‘nalishdagi tadqiqotlar ko‘lamini yanada kengaytirish maqsadga muvofiq.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktyabrdagi PF-5853-son “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonlari, 2017-yil 16-oktyabrdagi PQ-3327-son “Respublikamizda asalarichilik tarmog‘ini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori, Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 12-iyundagi

¹ Mordor Intelligence ma‘lumotlari. — www.mordorintelligence.com/ru/industry-reports/natural-honey-market

² O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi xodimlariga tabrik. 06.12.2019. — <https://president.uz/oz/lists/view/3117>

239-son “Asalarichilik tarmog‘ini qo‘llab-quvvatlash va qishloq xo‘jaligi ekinlarini asalari bilan changlatishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori hamda mazkur soha faoliyatiga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. «Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy hamda madaniy-ma‘rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish» ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Asalarichilikda samaradorlikni oshirish borasida hamda bugungi kunda rivojlanib borayotgan innovatsion texnologiyalardan foydalanish borasida dunyoda ko‘pgina olimlar ilmiy izlanishlar olib bormoqda. Jumladan, mazkur masala A.L. Ala, B.A. Tijani, B. Oldroyd, H. Vural, D.C. Paton, M.A. Maikasawa, N. Ganawa, Lawler S.H., O. Seeman va boshqa xorijiy olimlarining ilmiy izlanishlarida yoritilgan. Bu mavzu borasida MDH olimlaridan N.F. Kraxotin, N.A. Belyayeva, V.V. Vorobeva, A.V. Yeliseev, V.V. Jilin, Z.A. Zalilova, R.A. Zaripov, Ye.P. Kolosova, L.N. Korneeva, R.A. Mannapova³ va boshqalarning ilmiy izlanishlarida yoritilgan.

Mamlakatimizda ham qishloq xo‘jalik iqtisodiyoti, jumladan asalarichilik iqtisodiyotini ko‘pgina olimlar tadqiq etgan. Jumladan, A.G. Chekalov, B.A. Qahramonov, A.I. Isamuhamedov, U.Sh. Ballasov, S.F. Ergashev, O.S. To‘rayev, R.X. Pulatova, A.I. Isamuhamedov, H.K. Nikadamdayev, R.X. Ergashev, O. Murtazayev, R.X. Tashmatov, X.F. Axrorov, V. Brovarskiy, Sh. Suyarqulov, J.Z. Farmonov⁴ kabi olimlarning ilmiy ishlarida agrar sohani rivojlantirish, asalarichilik samaradorligini oshirish imkoniyatlari o‘rganilgan.

³Tijani B.A., Ala A.L., Maikasawa M.A., Ganawa N. “Economic Analysis of Beekeeping in Chibok Local Government Area of Borno State, Nigeria” Nigerian Journal of Basic and Applied Science (2011), 19(2): 285-292, Hasan Vural, Süleyman Karaman Socio-economic analysis of beekeeping and the effects of beehive types on honey production//African Journal of Agricultural Research Vol. 5(22), pp. 3003-3008, 18 November, 2010, Oldroyd B, Lawler S.H. And Crozier R.H. 2014, Do feral honeybees *Apis mellifera* and regent parrots *Polytelisanthropeplus* compete for nest sites?//Australian Journal of Ecology, Vol. 19: 444-450. Paton D.C. Impact of commercially managed honeybees *Apis mellifera* on flora and fauna of Ngarkat Conservation Park, HBRDC research report., Seeman O. 2014, The impact of managed honeybees on native//Australian animals and plants, University of Queensland, unpublished working paper.Н. Ф. Крахотин. Календарь пчеловода. – М.,2009. Воробева В.В. Повышение экономической эффективности пчеловодства в регионе: на материалах Алтайского края тема автореф по ВАК РФ 08.00.05, канд. экон. наук, Залилова З.З. Статистико-экономическое исследование производства продукции пчеловодства // [Электронный ресурс]. — URL: <http://www.economy-lib.com/statistiko-ekonomicheskoe-issledovanie-proizvodstva-produktsii-pchelovodstva>

⁴ Чекалов А.Г. Ўзбекистон асалчилигининг бугунги куни ва ривожланиш истикболлари: муаммолар ва ечимлар//ЎзБИИТИ, респ. илм.-амал. конф. 06.06.2005. -Тошкент. -63-65 б; Қахрамонов Б.А., Исамухамедов А.И., Балласов У.Ш., Эргашев С.Ф., Тўраев О.С. Шахсий ёрдамчи, дехкон ва фермер хўжаликларида асалари оилаларини парваришlash. Ўқув қўлланма.– Т.: ТошДАУ, 2009.; Исамухамедов А.И., Никадамдаев Ҳ.К. Асаларичиликни ривожлантириш асослари. –Т.: Шарқ, 2013. -336 б.; Пулатова Р.Х. Асаларичилик фермер хўжаликларини ташкил этиш ва юритиш. Ўқув қўлланма.– Т.: 2016., Эргашев Р.Х. Қишлоқ хўжалик иқтисодиёти. — Т.: 2011; Муртазаев О., Ахrorov Ф. Қишлоқ хўжалик иқтисодиёти. Дарслик. -Т.: 2017; Ташматов Р.Х., Хотамов Қ.А. Асаларичилик тармоғи равнақи. / “Fermer Press” газетаси. Тошкент ш., 2012 й., № 18 (583) (29 октябр 2012 й.), Броварский В., Суярқулов Ш. Асалариларни кўпайтириш ва парваришlash. Дарслик. -Т.: Бактрия пресс, 2021. -432 б.; Фарманов Ж.З. Иқлим ўзгариши шароитида асаларичиликни ривожлантиришнинг асосий йўналишлари/Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илм. дар. ол. учун ёз. дисс. -Тошкент, 2024.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida asalarichilikning o'zni alohida ajralib turadi. Shu sababli ham bu sohani rivojlantirish, samaradorlik ko'rsatkichini oshirish, yangi innovatsion texnologiyalarni joriy etish borasida aniq ilmiy tadqiqotlar olib borilmaganligi bu mavzuni tanlash zaruriyatini keltirib chiqardi va uning maqsad hamda vazifalari belgilandi. Qoraqalpog'iston Respublikasi respublikamiz shimoliy hududida joylashgan bo'lib, iqlimi qishloq xo'jaligining qolgan yo'nalishlarida bir qancha muammolarga uchrayotganligi sababli dissertatsiya ishi obyekti sifatida tanlandi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi, 2015-2017-yillarda bajarilgan F-1-77-son "Janubiy Orol bo'yi ekologik sharoitida Shimoliy-g'arbiy O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy jadal rivojlantirishning mintaqaviy metodikasini, metodologiyasini va strategiyasini ishlab chiqish (Quyidagi Amudaryo iqtisodiy tumani misolida)" fundamental loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi asalarichilik samaradorligiga ko'ra xo'jalik subyektlari faoliyatining iqtisodiy salohiyatini oshirish va innovatsion texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

qishloq xo'jaligida asalarichilikning ahamiyatini obyektiv zarurligini asoslash va uning rivojlanish xususiyatlarini tadqiq etish;

asalarichilik tarmog'ini rivojlantirishda ta'sir ko'rsatuvchi iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, texnologik va tabiiy-iqlim sharoiti bilan bog'liq omillarni tahlil qilish;

Qoraqalpog'iston Respublikasining asalarichilik xo'jaliklari holatini o'rganish va tahlil qilish;

asalarichilikda samaradorlikni oshirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanishning ilmiy va uslubiy asoslarini tadqiq etish;

asalarichilikning hudud aholisi daromadiga ta'sirini baholash;

hududda an'anaviy va innovatsion asalarichilikning qiyosiy tahlilini amalga oshirish.

Tadqiqotning obyekti bo'lib Qoraqalpog'iston Respublikasidagi asalarichilik bilan shug'ullanuvchi subyektlar faoliyati hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti asalarichilik samaradorligiga ko'ra xo'jalik subyektlari faoliyatining iqtisodiy salohiyatini oshirish va innovatsion texnologiyalardan foydalanish jarayonida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada iqtisodiy tahlil, abstrakt fikrlash, grafik, so'rovnomalar, monografik kuzatish, ekspert baholash, prognozlash, iqtisodiy-matematik va boshqa usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

mintaqada qishloq xo'jaligi ekinlarini asalari yordamida changlatish uchun zarur bo'ladigan asalari oilalariga ko'ra asal yetishtirishda talabning qondirilishi hamda asalarichilikni, jumladan sohani barqaror va noaniq sharoitda rivojlantirish samaradorligini oshirishda qo'shilgan qiymatga asoslangan asalarichilik mahsulotlarini rivojlantirish kabi yo'nalishlar asoslangan;

asalarichilik oilalarda kambag'allikni oldini olish, ishsiz aholining qo'shimcha bandligini ta'minlash va qo'shimcha daromadlar olish hamda yirik fermer xo'jaliklari faoliyatini diversifikatsiya qilib, qo'shimcha daromad manbai sifatida foydalanishning samarali imkoniyati ekanligi asoslangan;

Qoraqalpog'iston Respublikasida asalarichilikni rivojlantirishda 2024-2028-yillarga mo'ljallangan asalari oilalari sonining ko'p variantli prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan;

mintaqada asalarichilikni rivojlantirish va asal yetishtirishga bo'lgan talabni ta'minlanish darajasiga ko'ra 2024-2028-yillarga mo'ljallangan davrda yetishtiriladigan asal, mum, propolis, gul changi va asalari zahrining ko'p variantli prognoz qiymatlari asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

asalarichilik samaradorligi va innovatsion texnologiyalardan foydalanishning nazariy va uslubiy asoslariga oid sohani rivojlantirishning mohiyati, o'ziga xos xususiyatlari va nazariy asoslari, asalarichilikda ishlab chiqarishni tashkil etishga oid tushunchalar bo'yicha tasniflarni takomillashtirish bo'yicha mualliflik takliflari ishlab chiqilgan;

xorijiy mamlakatlar ilg'or tajribasini mintaqada asalarichilik samaradorligini oshirishda tatbiq etish imkoniyatlari bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan;

hududda an'anaviy va innovatsion asalarichilikning qiyosiy tahliliga ko'ra yuqori samara keltiruvchi yo'nalishlarini joriy etish orqali foydani oshirish imkoniyatlari bo'yicha takliflar asoslangan;

innovatsion texnologiyalarga ko'ra asalarichilik samaradorligini oshirishning aholi farovonligi va daromadlarining oshishiga ta'siri hisoblangan.

Olingan natijalarining ishonchliligi qo'llanilgan metodologik yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, axborotlar bazasi rasmiy manbalaridan, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasi hisobotlaridan, mintaqada faoliyat olib borayotgan asalarichilik obyektlaridan olingan so'rovnomalardan olingani hamda respublika va xorij iqtisodchi olimlarining sohaga oid tadqiqotlarining ilmiy-uslubiy natijalarga tayanilganligi, taklif va tavsiyalarining amaliyotga joriy qilingani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ishlab chiqilgan nazariy va metodologik-uslubiy tavsiyalar asalarichilikni innovatsion texnologiyalarga ko'ra rivojlantirishning uslubiy asoslarini takomillashtirishga, soha istiqbolini prognozlash bo'yicha tegishli hujjatlarni asoslashga xizmat qilishi mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati taklif va tavsiyalardan foydalanish asalarichilik xo'jaliklarini samarali rivojlantirish, ular joylashgan hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ijobiy ta'sir ko'rsatishiga, tadbirkorlik subyektlari ko'lamini kengayishiga va bu orqali bandlikni ta'minlashga hamda daromadlarini oshirishga muayyan darajada xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Asalarichilik samaradorligini innovatsion texnologiyalarga ko'ra oshirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

mintaqada qishloq xo'jaligi ekinlarini asalari yordamida changlatish uchun zarur bo'ladigan asalari oilalariga ko'ra asal yetishtirishda talabning qondirilishi hamda asalarichilikni, jumladan sohani barqaror va noaniq sharoitda rivojlantirish samaradorligini oshirishda qo'shilgan qiymatga asoslangan asalarichilik mahsulotlarini rivojlantirish bo'yicha takliflar Qoraqalpog'iston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasi faoliyatida qo'llanilgan (Qoraqalpog'iston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasining 2024-yil 28-avgustdagi №33/01-13-751-son ma'lumotnomasi). Taklif asalarichilikni rivojlantirishga ko'ra aholi bandligini oshirish hamda qo'shimcha qiymatga asoslangan asalarichilik mahsulotlari hisobiga daromad manbalarini diversifikatsiya qilish, daromadning faqat asal ishlab chiqarishga bog'liqligini kamaytirishga muayyan darajada xizmat qilgan;

asalarichilik oilalarda kambag'allikni oldini olish, ishsiz aholining qo'shimcha bandligini ta'minlash va qo'shimcha daromadlar olish hamda yirik fermer xo'jaliklari faoliyatini diversifikatsiya qilib, qo'shimcha daromad manbai sifatida foydalanishning samarali imkoniyati ekanligi bo'yicha taklif Qoraqalpog'iston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasi faoliyatiga qo'llanilgan (Qoraqalpog'iston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasining 2024-yil 28-avgustdagi 33/01-13-751-son ma'lumotnomasi). Taklif asalarichilikni rivojlantirishga ko'ra mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini bandlik va daromadlilik darajasini oshirishga muayyan darajada xizmat qilgan;

Qoraqalpog'iston Respublikasida asalarichilikni rivojlantirishda 2024-2028-yillarga mo'ljallangan asalari oilalari sonining ko'p variantli prognoz ko'rsatkichlari bo'yicha takliflar Qoraqalpog'iston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasi tomonidan foydalanilgan (Qoraqalpog'iston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasining 2024-yil 28-avgustdagi 33/01-13-751-son ma'lumotnomasi). Prognoz asal yetishtirish va talabni qondirishda asalarichilikni rivojlantirishning tub masalasi bo'yicha ichki imkoniyatlardan samarali foydalanishga muayyan darajada xizmat qilgan;

mintaqada asalarichilikni rivojlantirish va asal yetishtirishga bo'lgan talabni ta'minlanish darajasiga ko'ra 2024-2028-yillarga mo'ljallangan davrda yetishtiriladigan asal, mum, propolis, gul changi va asalari zahrining ko'p variantli prognozi bo'yicha takliflar Qoraqalpog'iston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasi tomonidan foydalanilgan (Qoraqalpog'iston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasining 2024-yil 28-avgustdagi №33/01-13-751-son ma'lumotnomasi). Prognoz ishlanmalari mintaqada asal yetishtirish va unga bo'lgan talabni qondirishda innovatsion imkoniyatlardan samaraliroq foydalanishga muayyan darajada xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 12 ta, jumladan 4 ta xalqaro va 8 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 18 ta ilmiy ish, jumladan, OAKning doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda 6 ta maqola (5 ta respublika va 1 ta xorijiy jurnalda) nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 120 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va ahamiyati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari hamda obykti va predmeti tavsiflangan, respublikada fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, shuningdek, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, nashr qilingan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Asalarichilik samaradorligini oshirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanishning nazariy va uslubiy asoslari**" deb nomlanib, asalarichilikni rivojlantirishning mohiyati, o'ziga xos xususiyatlari va nazariy, ilmiy va uslubiy asoslari, asalarichilikda samaradorlikni oshirishda ilg'or xorijiy mamlakatlar tajribalari, asalarichilik xo'jaliklarini tashkiliy huquqiy asoslari, qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlar o'rganilgan va amaliy ahamiyati yoritilgan.


Asalarichilik bashariyatning eng qadimiy o'zlashtirgan kasblaridan biri hisoblanadi. A.Eynshteyn "Agar asalarilar bo'lmasa, insoniyat bu dunyoda atiga bir necha yillargina yashay olgan bo'lar edi" deb asalarilarning insoniyat hayotida muhim ekanligini keltirib o'tgan⁵. Germaniya Federal qishloq xo'jaligi vaziri Yuliya Klokner asal va yovvoyi asalarilarning ahamiyatini "Ular muhim iqtisodiy omil hisoblanadi: asalarilar koloniyasining changlanish qiymati 800 dan 900 yevrogacha"⁶ deb ta'kidlaydi. Hohenxaym universiteti olimlarining hisob-kitoblariga ko'ra, changlatishning iqtisodiy qiymati butun dunyo bo'ylab 70 dan 100 milliard yevroni tashkil etadi⁷.

Zamonaviy asalarichilik yanada barqaror va asalarilarni mahalliy sharoitlarga moslashtiriladigan dehqonchilik tizimiga o'tmoqda. Ammo barqaror asalarichilikni rivojlantirish, tabiiy, ekologik toza asal olish, asalarichilar tayanadigan tabiiy tizimlar va resurslarni optimallashtirish uchun asalarichilikni to'g'ri yuritish bo'yicha yaxshi bilim hamda tajribalar talab etiladi. Qolaversa, zamonaviy texnologiyalar va innovatsiyalar asalarichilik faoliyatini yanada rivojlantiradi. Asalarichilikni rivojlantirish bugungi kunda tabiiy zaruratga aylanmoqda. Chunki soha rivojini ta'minlash o'ziga xos afzalliklarga ega bo'lib qator muammolarning yechimi hisoblanadi (1-rasm).

⁵ No bees - no pollination - no food - no man. [Electronic resource] - : <http://opchelkah.ru/category/novosti/> (date of appeal 15.03.2016)


⁶ Bedeutung der Bienen ist enorm – für Artenvielfalt und Volkswirtschaft. 19.05.2020. <https://www.bmel.de/SharedDocs/Pressemitteilungen/DE/2020/086-bienen.html>

⁷ FAO: Good beekeeping practices for sustainable apiculture. -Rome, 2021. www.fao.org/3/cb5353en/cb5353en.pdf



1-rasm. Asalarichilikni rivojlantirish afzalliklari⁸

Shu sababdan jahonda asal ishlab chiqarish miqdori yildan-yilga oshib bormoqda va bunda sohaga innovatsion texnologiyalarni qo'llash muhim yo'nalish sifatida qaralmoqda. Sohaning ahamiyati yuqori bo'lishiga qaramasdan 1995-2010-yillarda Markaziy Osiyoda va mamlakatimizda asal yetishtirishning kamayishi kuzatilgan, ammo jahonda ijobiy o'sishga ega bo'lgan. Asosiy o'zgarish 2010-2022-yillarda to'g'ri kelmoqda (2-rasm).




2-rasm. Jahonda va O'zbekistonda asal ishlab chiqarish miqdorining o'zgarishi (ming tonna)⁹

Jumladan O'zbekistonda Mustaqillikning dastlabki yillarida asal ishlab chiqarish miqdori kamayib borgan 1995-yilda 6,0 ming tonnadan 2005-yilda 2,1 ming tonnaga qadar kamaygan. E'tiborli jihati O'zbekistonda 1992-yilda 12,5 ming tonnagacha asal ishlab chiqarilgan bo'lsa, 2004-yilda 1,9 ming tonnaga qadar kamayib borgan. Faqat 2005-yildan keyingi davrda asta-sekin oshishi kuzatilgan va 2010 yildan keyin keskin o'sish sur'atlariga ega bo'lgan. Natijada 2022-yilda 14,7 ming tonna asal ishlab chiqarilgan bo'lib, mamlakatning Markaziy Osiyo mamlakatlari tomonidan ishlab chiqarilgan asalning ulushi 1995-yildagi 24,5%dan 2022-yilda 54,3%gacha oshgan.

⁸ Tadqiqotlar asosida muallif ishlanmasi.

⁹ www.ourworldindata.com ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

Asalarichilikning barqaror rivojini ta'minlash mavjud sharoit hamda imkoniyatlarga mos bo'lgan strategiyalarning ishlab chiqilishini talab qiladi. Shu sababli mamlakatimizda asalarichilikni rivojlantirishning strategiyasi ishlab chiqildi. Asalarichilikni tashkil etilishi qishloq xo'jaligi, jumladan chorvachilikning boshqa mahsulotlari ishlab chiqarilishi jarayonlaridan farq qiladi. Sababi bu faoliyat boshqa mahsulotlardek, ishlab chiqarildi va sotildi kabi jarayondan iborat emas (3-rasm).



3-rasm. Asalarichilikni tashkil etish va uni rivojlantirish strategiyasi¹⁰

Asalarichilik faoliyatini tashkil etgan tadbirkor yoki xo'jalik rahbari, avvalo, uning infratuzilmasini shakllantirib olishi kerak. Bunda asalarichilik ishlab chiqarishini tashkil etish uchun resurslar (uyalar, jihozlar va boshqa moddiy resurslar, mehnat resurslari), asal yig'ishga yetarli va asalarilarni joylashtirish hududi, transportlar, energiya manbalari va shu kabilar mavjud bo'lishi kerak.

Dissertatsiyaning **“Qoraqalpog‘iston Respublikasida asalarichilik samaradorligini oshirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish holati va uning samaradorligi tahlili”** deb nomlangan ikkinchi bobida Qoraqalpog‘iston Respublikasida asalarichilikda iqtisodiy salohiyati va hozirgi holati tahlili, ularning statistik tahlili, asalarichilikni rivojlantirishning aholi farovonligi va daromadlarining oshirilishiga ta'siri, ayollar va yoshlar bandligini ta'minlashdagi ahamiyati, hududda an'anaviy va innovatsion asalarichilikning qiyosiy tahlili amalga oshirilgan, ijobiy va salbiy tomonlari o'rganilgan.

¹⁰ Tadqiqotlar asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Qoraqalpog‘iston Respublikasida asal yetishtirish miqdori jadallik bilan oshib bormoqda. Tadqiqotlarimiz davomida Qoraqalpog‘iston Respublikasida asalarichilikda olingan mahsulotlar dinamikasi o‘rganildi (1-jadval).


1-jadval

Qoraqalpog‘iston Respublikasida asalarichilikda olingan mahsulotlar dinamikasi¹¹

№	Mahsulot turi	O‘lchov birligi	Yillar						O‘zgarishi	
			2013	2015	2017	2019	2021	2023	Miqdoriy, +/-	Nisbiy, marta
1	Asal	Tonna	291,9	364	504,4	730,9	799,3	876,4	584,5	3,0
2	Mum	Tonna	24,7	30,9	42,6	62,6	65,3	70,4	45,7	2,85
3	Propolis	Tonna	1,07	1,33	1,84	2,82	2,94	3,20	2,1	3,0
4	Gul changi	Tonna	12,5	15,6	21,6	31,3	32,7	36,2	23,7	2,89
5	Asalari zaxri	Kg	58,4	72,8	100,9	146,2	159,9	175,3	116,9	3,0

1-jadval ma’lumotlardan ko‘rish mumkinki, Qoraqalpog‘iston Respublikasi asalarichiligida yetishtirilgan mahsulotlar yildan-yilga oshib borgan. Jumladan: asal ishlab chiqarish 2013-yilga nisbatan 2023-yilga kelib 584,5 tonnaga yoki 3 marta, mum ishlab chiqarish esa bu davrda 45,7 tonna yoki 2,85 marta, propolis ishlab chiqarish 2,1 tonnaga yoki 3 marta, gul changi yetishtirish 23,7 tonnaga yoki 2,89 marta, asalari zaxri esa 116,9 kg yoki 3 marta oshganligini kuzatish mumkin. Bundan xulosa qilish mumkinki asalarichilik mahsulotlarini yetishtirish borasida qiziqishlar ortib borayotganligidan dalolat beradi.

Asal yetishtirishda asalchilikdan aniq olinadigan mahsulotlardan tashqari ham maqsadlar va yo‘nalishlar mavjud. Asalarichilik va asal yetishtirish iqtisodiyoti-ning maqsadi mohiyatan turli-tuman yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi (4-rasm).




4-rasm. Asalarichilik va asal yetishtirish iqtisodiyoti yo‘nalishlari¹²

¹¹ Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblangan.

¹² Tadqiqotlar asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Hozirgi vaziyatda mamlakatimizda va dunyoda muhokama qilinadigan asosiy muammoli masalalardan biri bu ishlab chiqarilayotgan asal mahsulotining sifat darajasining pasayotganligi, ya'ni soxta asal tayyorlash ko'payib borayotganidir. Ishlab chiqarish sifatini nazorat qilish bo'yicha mamlakatimizda standartlashtirilgan tizim mavjud emas. Bu esa sohani nazorat qilish va tartibga solish borasida ko'p ishlar qilinishi kerakligini ko'rsatadi. Asalchilik infratuzilmasini tashkil etish, narxlarni belgilash va risklarni modellashtirish va institutsionalizatsiya bo'yicha ko'p ishlar qilinishi kerak. Narxlar va sertifikatlashtirish ham muhim masalalardir.

O'rganishlar natijasida asalarichilik bilan shug'ullanuvchilarning bu faoliyat bilan shug'ullanishlariga turli omillar turkumlari ham sabab bo'lishi aniqlandi (5-rasm).



5-rasm. Asalarichilik faoliyatini yuritish sabablari¹³

Tibbiy me'yorlar asosida asal yetishtirish darajasi tadqiqotlar davomida hisoblandi (2-jadvalga qarang). Agarda tibbiy me'yorlardan kelib chiqib asal yetishtirish zaruriyatini hisoblaydigan bo'lsak, 2023-yilda aholi iste'moli uchun O'zbekiston Respublikasi bo'yicha - 252174,3 tonna, Qoraqalpog'iston Respublikasi uchun – 13833,4 tonna, Nukus shahri uchun esa – 2342,2 tonna asal zarur bo'lishi aniqlandi. Afsuski, hozirda mavjud ishlab chiqarish quvvatlari buncha miqdorda asal yetishtirish imkonini bermaydi, ammo agar asal yetishtirish miqdori oshiriladigan bo'lsa, asalga talab yuqori ekanligini ko'rsatadi.

¹³ Tadqiqot natijalari ma'lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblangan.

**Mavjud tibbiy me'yorlar asosida aholining asalga bo'lgan talabi dinamikasi
(me'yor – 7 kg/kishi)¹⁴**

№	Tumanlar	Yillar					
		2013	2015	2017	2019	2021	2023
Qoraqalpog'iston Respublikasi		11982,6	12341,7	12722,5	13088,6	13465,9	13833,4
1	Nukus shahri	2023	2104,9	2151,8	2204,3	2266,6	2342,2
2	Amudaryo	1237,6	1275,4	1320,9	1367,1	1409,8	1460,2
3	Beruniy	1171,1	1215,9	1263,5	1313,2	1361,5	1408,4
4	Bo'zatov	-	-	-	-	151,9	153,3
5	Qorao'zak	344,4	352,1	360,5	366,8	373,1	378,7
6	Kegeyli	586,6	599,9	616,7	626,5	512,4	519,4
7	Qo'ng'iro't	829,5	853,3	876,4	898,1	921,2	942,2
8	Qanliko'l	324,1	333,2	343,7	352,1	361,9	371,7
9	Mo'ynoq	204,4	207,9	214,2	219,1	226,1	233,8
10	Nukus	310,1	315	329,7	343,7	357,7	370,3
11	Taxiatosh	-	-	-	509,6	522,9	534,1
12	Taxtakopir	270,2	271,6	275,8	279,3	282,8	273
13	To'rtko'l	1323	1372,7	1421,7	1472,1	1523,9	1572,9
14	Xo'jayli	1275,4	1296,4	1326,5	848,4	870,1	890,4
15	Chimboy	750,4	765,8	788,9	806,4	793,8	805,7
16	Shumanay	368,2	375,2	382,9	389,2	396,2	403,2
17	Ellikqal'a	964,6	1002,4	1049,3	1092,7	1134	1173,9

Qoraqalpog'iston Respublikasida aholini asal mahsuloti bilan ta'minlash, buning uchun zarur uyalar soni, zamonaviy innovatsiyalar qo'llangan holda ishlab chiqarishni tashkil etganda har bir uyadan olinadigan mahsulot 80 kg.gacha oshadi, bunday holatda qancha uyalar soni talab qilinishini ham tadqiqotlar davomida o'rganildi (3-jadvalga qarang).

3-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, Qoraqalpog'iston Respublikasida tadqiq etilgan 2013-2023-yillar davomida aholi soni 1711,8 ming kishidan 1976,2 ming kishiga yoki 15%ga oshgani holda bu davrda asal ishlab chiqarish 291,9-876,4 tonna oralig'ida yoki 3 martaga ko'paygan. Shunday bo'lsada, Respublikada asal yetishtirish tibbiy me'yorga nisbatan 2013-2023-yillarda 2,4-6,3% gina darajada qoplanib kelingan. Bu davrda jon boshiga asal iste'moli 7 kg/kishini tashkil etsada, real holatda 170,5-443,5 gramm/kishini tashkil etib, o'rganilgan davrda bu ko'rsatkich 2,6 martaga oshgan bo'lsada, haligacha aholini asal bilan ta'minlash juda past ko'rsatkichga egaligicha qolmoqda.

¹⁴ Tadqiqot natijalari ma'lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblangan.

3-jadval

Qoraqalpog‘iston Respublikasida asal yetishtirishda talabning qondirilishi va zaruriy asalari uyalar soni tahlili*¹⁵

№	Ko‘rsatkichlar	O‘lchov birligi	Yillar					2023-yilda 2013-yilga nisbatan o‘zgarishi	
			2013	2015	2019	2021	2023	Miqdoriy, +/-	Nisbiy, marta
1.	Aholi soni	ming kishi	1711,8	1763,1	1869,8	1923,7	1976,2	264,4	1,15
2.	Ishlab chiqarilgan asal miqdori (Taklif)	tonna	291,9	364,0	730,9	799,3	876,4	584,5	3,0
3.	Tibbiy me‘yor bo‘yicha zarur asal hajmi (talab)	tonna	11982,6	12341,7	13088,6	13465,9	13833,4	1850,8	1,15
4.1	Talab va taklif o‘rtasida farq (umumiy)	tonna	11690,7	11977,7	12357,7	12666,6	12957,0	1266,3	1,11
4.2		%	2,4	2,9	5,6	5,9	6,3	3,9	2,60
5.	Jon boshiga ishlab chiqarilgan asal miqdori (taklif)	gramm	170,5	206,5	390,9	415,5	443,5	273,0	2,60
6.	Tibbiy me‘yor asosida talab	gramm	7000	7000	7000	7000	7000	0,0	1,0
6.1.	Talab va taklif o‘rtasida farq (jon boshiga)	gramm	6829,5	6793,5	6609,1	6584,5	6556,5	-273,0	0,96
6.2.		%	2,4	2,9	5,6	5,9	6,3	3,9	x
7.	Asalari uyalarining soni	dona	15212	18062	31309	32669	36241	21029	3,0
8.	1 uya hisobiga o‘rtacha mahsulot	kg	19,2	20,2	23,3	24,5	24,2	5,0	1,26
9.	Talab bajarilishi uchun zarur uyalar soni	dona	624458	612406	560666	550378	572040	-52418	0,92
10.	Yetishmaydigan uyalar soni	dona	609246	594344	529357	517709	535799	-73447	0,88
11.	Zamonaviy innovatsiyalar qo‘llanganda mahsuldorlik	kg	80	80	80	80	80	0,0	1,00
12.	Zamonaviy innovatsiyalar qo‘llanganda jami asal yetishtirish hajmi	tonna	1217,0	1445,0	2504,7	2613,5	2899,3	1682,3	2,38
13.	Zamonaviy asalarichilikda zaruriy uya soni	dona	149783	154271	163608	168324	172918	23135	1,15
14.	Yetishmaydigan zamonaviy uyalar soni	dona	134571	136209	132299	135655	136677	2106	1,02

Asal yetishtirishda innovatsion texnologiyalar qo‘llanilishi mahsuldorlikni 80 kg/uyagacha oshirishini turli tadqiqotchilar tomonidan aniqlangan bo‘lib, mavjud asalari uyalar to‘lig‘icha innovatsiyalar qo‘llanilishiga o‘tkazilganida 2013-2023-yillarda 1217,0-2899,3 tonna asal yetishtirish imkonini berishi, shunda ham aholi talabini qondirish uchun 149,8-173,0 ming dona asalari uyasi kerak bo‘lib, yetishmaydigan asalari uyalar soni 134,5-136,7 ming donani tashkil etishi aniqlandi. Ushbu jadvaldan xulosa qilinadigan bo‘lsa, aholining asalga bo‘lgan talabini qondirish uchun: birinchi navbatda, zamonaviy innovatsion texnologiyalar asosida asal yetishtirib, mahsuldorlikni oshirish va keyingi navbatda asalari uyalar sonini ko‘paytirish muhim hisoblanadi.

¹⁵ Tadqiqot natijalari ma’lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblangan.


Bugungi kunda asalarichilik bilan dehqon fermer xo‘jaliklarimizda qishloq xo‘jaligi ekinlari hosildorligini oshirishga yetarli darajada asalari oilalari mavjudmi yoki yo‘qligini aniqlash maqsadida Qoraqalpog‘iston Respublikasida asalarichilikning 2 turdagi ekinga ta‘sirini baholash maqsadida asalari oilalar sonini tahlili amalga oshirildi (4-jadval).

4-jadval

Qoraqalpog‘iston Respublikasidagi paxta va mevali daraxtzorlar uchun zarur bo‘lgan asalari oilasi soni¹⁶

№	Ko‘rsatkichlar	Paxta	Mevali daraxtlar
1	Ekin maydoni (ga)	108159	9138,1
2	Changlatish uchun zarur bo‘ladigan asalari oilalari soni (dona)	324477	27414,3
3	Hozirdagi hosildorlik darajasi (sentner/ga)	24,7	86,2
4	Asalari bilan changlatishdan keyingi hosildorlik darajasi (sentner/ga)	32,8	124,99
5	Jami 2 turdagi ekin uchun kerak bo‘ladigan asalari oilalari soni (dona)	351892	

4-jadval ma‘lumotlarini tahlil qiladigan bo‘lsak, jami 2 turdagi qishloq xo‘jalik ekinlar uchun 351892 dona asalari oilasi talab qilinadi. Buning natijasida paxtachilikda hosildorlik darajasi gektariga 8,1 sentnerga, bog‘lar hosildorligi gektariga 38,79 sentnerga oshishiga imkon yaratadi. Ammo, Qoraqalpog‘iston Respublikasida mavjud asalari uyalar soni haqidagi ma‘lumotlar hozirda buning imkoniyati to‘liq ta‘minlanmaganligini ko‘rsatmoqda (6-rasm).



6-rasm. Qoraqalpog‘iston Respublikasida asalari oilalari sonining dinamikasi¹⁷


6-rasmdan ko‘rish mumkinki, 2023-yil holatiga Qoraqalpog‘iston Respublikasida 36241 dona asalari oilalari mavjud. Agarda yuqoridagi faqatgina 2 turdagi ekin uchun 351892 dona asalari oilalari zarur bo‘lsa, bundan ko‘rish mumkinki hozirgi mavjud asalari oilalaridan tashqari 315651 dona asalari oilalari talab qilinadi. Demak asalari oilalarini ko‘paytirish orqali qishloq xo‘jalik ekinlarini hosildorligini oshirish bilan birga asal mahsulotlarini ham oshirish imkoniyatini beradi.

¹⁶ Tadqiqot natijalari ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblangan.

¹⁷ Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblangan.

Xulosa qilish mumkinki, Qoraqalpog‘iston Respublikasida asalarichilik faoliyatiga mahsulot ishlab chiqarish sohasida ham, changlatish borasida ham asosiy muammo asalarilarning yetishmasligi, uya soning kamligidir.

Asalarichilikda innovatsion texnologiyalardan foydalanish jarayonlarni faqat inson (asalarichi) ongi (tajribasi) orqali emas, balki asal yetishtirish jarayonini turli aqlli qurilmalar orqali nazorat qilish imkonini beradi (7-rasm).



7-rasm. Asalarichilikda innovatsion texnologiyalardan foydalanish modeli¹⁸

Unga asosan 50 minglab arilar yashaydigan ko‘plab kichkina qutilar (asalari uyalari)ga aqlli sensorlar joylashtirilib, ular uyadagi namlik, harorat, asal massasi, asalarilarning parazitlari haqida ma’lumotlar bazasini yaratib beradi. Bu ma’lumotlardan foydalangan asalarichilar maxsus dasturiy ta’minotlar vositasida qabul qilingan qaror asosida uyaga tegishli tartibda ishlov berib turishadi. Shuningdek, bunday ma’lumotlar gulchanglari mavjud yerlarni ham qamrab oladi va asalarichilarga gulchanglari to‘g‘risida, ularning uzoq-yaqinligi haqida ma’lumotlar berib turadi. Holatga qarab, asalarichilar mahalliy tajribalar va xalqaro tajribalarni umumlashtirishadi. Ma’lumotlar bazasining shakllanishi esa, ular borasidagi ilmiy tadqiqotlarga ham yo‘l ochadi.

Tadqiqotlar davomida an’anaviy va zamonaviy asalarichilikda daromad va xarajatlar tahlili o‘rganildi. Bu an’anaviy va zamonaviy asalarichilik faoliyati ishlab chiqaruvchilarga qanchalik naf keltirishini aniqlash imkonini beradi.

Xarajatlar va daromadlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, zamonaviy asalarichilik uchun o‘rtacha o‘zgaruvchan xarajat 1 ta uya uchun bir yilga 438,9 ming so‘mni, o‘zgarmas xarajat 530,7 ming so‘mni, umumiy xarajat esa 969,6 ming so‘mni va

¹⁸Tadqiqotlar asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan

yalpi daromad 2421,8 ming so‘mni tashkil etadi, har bir uyadan 227,4 ming so‘m qo‘shimcha mahsulotlar hisobiga daromad olish imkonini beradi (5-javal)

5-jadval

Zamonaviy va an’anaviy asalarichilik bilan bog‘liq xarajatlar va daromadlar, har bir uyaga/yilga (ming so‘m)¹⁹

Xarajatlar va daromadlar	Zamonaviy (innovatsiya)		An’anaviy	
	Qiymati	Ulushi, %	Qiymati	Ulushi, %
Mehnat xarajatlari	100,4	10,35	264,0	23,46
Transport xarajatlari	42,6	4,4	110,4	9,81
Shakar va ozuqa xarajatlari	256,5	26,45	40,2	3,57
Saqlash xarajatlari	16,6	1,71	191,7	17,03
Asal olish xarajatlari	10,5	1,09	-	-
Yuvish vositalarining narxi	12,3	1,26	-	-
Chiqitlar qiymati	-	-	21,7	1,93
Umumiy o‘zgaruvchan xarajatlar	438,9	45,26	628,0	55,8
Ramkasiz asalari uyasi	85,4	8,81	-	-
Langstrot asalari uyasi	87,4	9,01	-	-
Usti olinadigan quti	66,7	6,88	-	-
Yog‘och ramka narxi	77,5	8	-	-
Cho‘tkani o‘rnatish	208,6	21,51	-	-
Sochiq	2,4	0,25	-	-
Maxsus pichoq	2,7	0,28	-	-
Maxsus idish	-	-	92,8	8,25
Yog‘och cho‘kich	-	-	4,2	0,37
Xumlar	-	-	72,4	6,43
Qovoq uyasi	-	-	74,6	6,63
Loyli uya	-	-	99,5	8,84
Somonli uya	-	-	154,0	13,68
Jami doimiy xarajat	530,7	54,74	497,4	44,2
Umumiy xarajat	969,6	100	1125,4	100
Yalpi daromad	2421,8	-	1780,8	-
Qo‘shimcha mahsulotlardan daromad	227,4	-	60,1	-
Xo‘jalikning sof foydasi	1679,6	-	715,5	-
Rentabellik darajasi, %	173,2	-	63,6	-
Investisiya qaytimi, yil	2	-	5	-

An’anaviy asalarichi uchun o‘rtacha o‘zgaruvchan xarajat 628,0 ming so‘mni, o‘zgaruvchan xarajatlar esa 497,4 ming so‘mni, jami xarajat 1125,4 ming so‘mni va yalpi daromad 1780,8 ming so‘mni tashkil etgan. Zamonaviy usulda asal yetishtirishda olinadigan mahsulot miqdori ko‘pligi hisobiga daromad an’anaviy usuldagi asalarichilikka nisbatan ancha yuqori bo‘lib, samaradorlik ko‘rsatkichlari ham shundan dalolat beradi.

¹⁹ Tadqiqotlar asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

An'anaviy va zamonaviy asalarichilikda yuzaga kelayotgan muammolarni o'rganish maqsadida so'rovnoma o'tkazildi va quyidagilar aniqlanildi (6-jadval).

6-jadval

Qoraqalpog'iston Respublikasida asalarichilik faoliyatida yuzaga kelayotgan muammolar²⁰

Muammolar	Zamonaviy asalarichilik		An'anaviy asalarichilik	
	Chastotalar	Foizda	Chastotalar	Foizda
Moliyaviy mablag'larning yetishmasligi	27	67,5	26	65,0
Aloqa tizimining yaxshi emasligi	23	57,5	25	62,5
Yaxshi saqlash joylarining yetishmasligi	25	62,5	26	65,0
Bozor imkoniyatlarining yetarli emasligi	27	67,5	27	67,5
Transport muammosi	26	65,0	28	70,0
Uskunaning yuqori narxi	23	57,5	28	70,0
Past rentabellik	22	55,0	25	62,5
Ari to'ldasining kamligi	30	75,0	25	62,5
Bilim darajasining yetishmasligi	23	57,5	28	70,0
Yangi innovatsion texnologiyalarning qimmatligi	29	72,5	25	62,5
Uyalarga hujumlar	27	67,5	30	75,0

6-jadvalda keltirilgan natijalar shuni ko'rsatdiki, zamonaviy asalarichilik bilan shug'ullanadiganlar uchun ular duch kelgan eng dolzarb muammo asalari oilalarining yetishmasligi. Bu o'z-o'zidan ishlab chiqariladigan asal miqdoriga ta'sir qiladi va asalarichilarning foyda marjasini kamaytiradi.

Dissertatsiyaning "**Asalarichilik samaradorligini oshirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish yo'nalishlari**" nomli uchinchi bobida asalarichilikda samaradorlikni oshirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanishni takomillashtirish, asalarichilikni rivojlantirishning aholi farovonligi va daromadlarining oshirilishiga ta'siri masalalari qarab chiqilgan. Shunindek asalarichilikda samaradorlikni oshirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanishning istiqboldagi prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotimizda so'rovnoma usulidan foydalangan holda asalarichilikning uy xo'jaliklari daromadiga ta'sirini baholadik. So'rovnoma uchun Qoraqalpog'iston Respublikasining asalarichilik salohiyati yuqori bo'lgan to'rtta tumani: Amudaryo, Qorao'zak, Nukus va To'rtko'l tumanlari tanlab olindi. Bu tumanlarda asalarichilik bilan shug'ullanadigan uy xo'jaliklari va asalarichilik bilan shug'ullanmaydigan uy xo'jaliklarida so'rovnoma amalga oshirildi. Jami respondentlar soni 340 ta bo'lgan uy xo'jaliklarida so'rovnomalar o'tkazildi. Umumiy so'rovnomaning 112 ta respondentini asalarichilik bilan shug'ullanadiganlar va 228 ta respondent bu yo'nalishda faoliyat yuritmaydiganlar tashkil etgan.

²⁰Tadqiqotlar asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan

Tadqiqotda ekonometrik modelda asalarichilikni rivojlantirish uchun ta'sir qiluvchi omillar daromad darajasi, aholi yoshi, ma'lumoti, asalarichilik uchun maydoni, asalarichilikdagi tadbirkorlik tajribasi va boshqa omillarni baholash uchun foydalanildi (7-jadval).

7-jadval

Asalarichilikni rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar²¹

№	Omillar nomi	Ta'sir darajasi
1	Daromad	+
2	Aholi yoshi	-
3	Jinsi	+
4	Ma'lumoti	+
5	Turmush holati (oilali, ajrashgan, uylanmagan)	-
6	Asalarichilik uchun yer maydoni	+
7	Asalarichilik tadbirkorligidagi tajriba	+
8	Treninglarda qatnashish	-
9	Ayol asalarilarni yolg'iz saqlash imkoniyati	+
10	Oila a'zolari soni	+
11	Boshqa daromadlar	+

Model quyidagi formulada ko'rsatilgan:

$$Y = \beta_0 + \beta_1 X_1 + \beta_2 X_2 + \beta_3 X_3 + \beta_4 X_4 + \beta_5 X_5 + \beta_6 X_6 + \beta_7 X_7 + \beta_8 X_8 + \beta_9 X_9 + \beta_{10} X_{10} + \beta_{11} X_{11} e_{iye} , \quad (1)^{22}$$

bu yerda, Y - asalarichilikni rivojlantirish; β_0 -uzilishlar; X_1 - Daromad; X_2 - Yoshi; X_3 -jinsi; X_4 -ma'lumoti; X_5 -oiladagilar soni; X_6 -turmush holati (oilali, ajrashgan, uylanmagan); X_7 -asalarichilik uchun yer maydoni; X_8 -asalarichilik tadbirkorligidagi tajriba; X_9 -Treninglarda qatnashish; X_{10} - ayol asalarilarni yolg'iz saqlash imkoniyati; X_{11} - boshqa daromadlar; β_1 dan β_{10} gacha- regressiya koeffitsiyenti; e_{iye} - xatolik.

Yuqorida ta'kidlab o'tilgan ma'lumotlarning aholi daromadiga kutilayotgan ta'siri 7-jadvalda umumlashtirilgan holda keltirilgan.

O'zgarishlarni hisobga olgan holda har bir yo'nalishdagi xo'jalikdagi oilalar sonini o'zgarishini jami oilalar soniga ta'sirini baholash maqsadida quyida keltirilgan model ishlab chiqildi.

$$\ln(AO) = 1,02 + 0,59 * \ln(DX) + 0,33 * \ln(FX) + 0,06 * \ln(B), \quad (2)$$

bu yerda, AO - Qoraqalpog'iston Respublikasidagi jami asalari oilalari soni; DX - dehqon xo'jaliklaridagi asalari oilalari soni; FX - fermer xo'jaliklaridagi asalari oilalari soni; B - boshqa ko'rinishdagi xo'jalik shakllarida mavjud asalari oilalari soni.

